

## IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TUSHUMLARINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Ruziyev Shaxzod Behzod o`gli

TDIUSF Iqtisod yo`nalishi

ST-122 guruhi talabasi

Shaxzodruziyev87@gmail.com

Tel:+998915216189

Ilmiy rahbar: Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya  
kafedrasidots. v.b., PhD

S.S.Togayev

**Annotatsiya:** Ma`lumki, soliqlar davlatning paydo bo`lishi bilan bevosita bog`liqdir, ya`ni davlat o`zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliq tushumlarining ahamiyati yoritilgan.

**Annotation:** Apparently, taxes are directly related to the emergence of the state, meaning the state utilizes taxes as a financial source to perform tasks within its authority. The article highlights the significance of tax revenues in developing the national economy.

**Аннотация:** Очевидно, налоги прямо связаны с возникновением государства, что означает использование государством налогов в качестве финансового источника для выполнения задач в его компетенции. Статья подчеркивает важность налоговых поступлений в развитии национальной экономики.

**Kalit so`zlar:** soliq yuki; soliq hajmi; soliq stavkasi; optimal nuqta; davlat budgeti.

**Key words:** Tax burden; tax revenue; tax rate; optimum point; state budget.

**Ключевые слова:** Налоговая нагрузка; налоговые поступления; налоговая ставка; оптимальная точка; государственный бюджет.


Soliqlar har qanday davlat daromadlari tizimining muhim qismidir. Qayd etilishi lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun kerak bo`lgan moliyaviy mablag`lar shakllantirishda soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo`llanilgan emas. Bu esa o`z navbatida soliqning davlat uchun o`rni naqadar katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Soliqlarning maqsadi iqtisodiyot rivojining barcha darajalarida barqaror iqtisodiy o`sish va ijtimoiy rivojlanish sharoitlarini yaratish maqsadida kompleks choralar, mexanizmlar va vositalar hamda harakatlarni shakllantirish hisoblanadi. O`zbekistonda ularning asosiy maqsadi davlat budgetiga tushadigan mablag`lar hajmining ko`lamini oshirishdir. Soliqlar davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur resurslarni ta`minlash orqali mamlakat va uning iqtisodiyotini rivojlantirishga yordam beradi.

Soliqlar davlat budgetiga tushgandan keyin, O`zbekiston fuqarolariga zarur bo`lgan xizmatlarni ko`rsatish uchun moliyalashtiriladi. Bundan tashqari soliqlar turli vazifalarni bajaradi. Hukumat uchun barqaror va kelajakda amalga oshirilishi kerak bo`lgan daromadlar oqimini yaratish asosiy vazifalardan biridir. Hukumat soliqlardan kutilayotgan daromadlar asosida turli loyihalar va xizmatlarni rejalashtirishi hamda budgetini tuzishi mumkin. Bu davlatga o`z resurslaridan qanday foydalanishi va xizmatlarning samarali ko`rsatilishini ta`minlash to`grisida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuning uchun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o`z nutqida: “Faqat biz to`gri qilyapmiz, deb yurish noto`g`ri. Nega endi odamlar norozi bo`lyapti deb ulardan xafa bo`lishimiz kerak? Eng katta muammomiz-tushuntirib bermaganingiz. Bu noto`g`ri. Soliq organidagi barcha darajadagi rahbarlar tadbirkorlar, odamlar bilan uchrashib, muammolarni eshitishi, tushunmovchiliklarning oldini olishi, ijtimoiy tarmoqlarda, OAVda kerakli axborotni berishi, o`rgatishi va yaqin ko`makchisi bo`lishi darkor. Soliq tizimi davlat korxonalarini transformatsiya qilishda faol ishtirok etishi, ularga tannarxni pasaytirish va moliyaviy barqarorlik bo`yicha yo`l-yo`riq ko`rsatishi kerak”, - deb ta`kidladilar va soliq idoralari faoliyatini yaxshilash, buning uchun axborot texnologiyalarini keng joriy etish zarur ekanligini ta`kidladi. Buning natijasida jarayonlar to`liq avtomatlashtiriladi, “yashirin iqtisodiyot” hajmini kamaytirish uchun soliq to`sqliari bartaraf etilishi, kadrlar salohiyati mustahkamlanishi kabi fikrlarni ilgari surdilar.

Qancha ko`p odam soliq to`lasa, hukumat davlat tovarlari va xizmatlariga sarmoya kiritish uchun shuncha ko`p resurslarga ega bo`ladi, bu esa mamlakatda iqtisodiy o`sishga, kasbiy o`sishga va martaba ko`tarilishiga olib keladi.



1-rasm. 2022 yil 1-yanvar holatiga soliq turlarining ulushi

Ushbu rasm orqali so`zimiz o`z tasdiqini topganini ko`rishimiz mumkin. 2022-yilning 1-yanvaridan 31-iyuligacha bo`lgan davrda respublika soliq tushumlari hajmi 2021-yilning shu davriga nisbatan 1.3 % ga oshgan. Bu esa yaxshi ko`rsatkich hisoblanadi. Shunday bo`lsada, biznes bilan shug`ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar tomonidan soliqlardan qochish, shu jumladan, o`z aylanmalarini kam qilib ko`rsatishlari, ishchilar va xodimlarini kam qilib ko`rsatishlari; chek bermaslik va boshqa shu

kabi holatlarga duch kelamiz va bularning o'sish surati hali ham to`xtaganicha yo`q. Bunga asosiy sabab: soliq to`lovchilarga yuklatilgan soliq yukining ko`pligidir. Shu kabi holatlarni oldini olish uchun birinchi prezidentimiz o'z ma`ruzalarida soliq to`lovchilarga soliqqa tortish tizimida qo'shimcha imtiyozlar va preferensiylar berish, soliqlarni unitifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligining barqarorligini ta`minlash hamda ushbu yo`nalishda ilg`or mamlakatlar ijobiy tajribalardan foydalanish lozimligini<sup>4</sup> ta`kidlab o'tganlar.

Soliq hajmiga ta`sir etmagan holda qilingan barcha chora-tadbirlar o`zini oqlamasligi tabiiydir. Davlatning soliq stavkasini joriy etayotganda , avvalo, Artur Laffer egri chizig`ini inobatga olishi zarurdir. Chunki soliq stavkasi ko`p bo`lsa, tadbirkorlik subyektlari rivojlanmay qoladi, aksincha, kam bo`lsa davlat budgeti to`lmay qoladi. Yurtboshimiz tomonidan qilingan islohotlar, shu jumladan, soliq yuki borasida amalga oshirilayotgan choralar bilan soliq stavkasini optimallashtirmoqda.

Soliq tushunchasi yaralibdiki, hozirgi kunga qadar uning vazifasi xalqqa xizmat qilish bo`lgan. Shuning uchun soliqlardan qochish emas, balki uning mohiyatini anglab, ularni iqtisodiyotga qanchalk ta`sir etishini tushunib, vatida to`lasak maqsadga muvofiq bo`ladi. Vaqtida to`langan soliqlar yashirin iqtisod rivojini oldini olishga xizmat qiladi.Soliq stavkasida optimal nuqtaning topilishi soliq to`lovchilarga ham davlatga ham foya hisoblanadi. Shunda biznes subyektlari ko`payib raqobat vujudga keladi hamda iqtisod rivojiga hissa qo'shadi. Buning natijasida yalpi ichki mahsulotimiz hajmi oshib, iqtisodda rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishimizga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1) Soliq kodeksi
- 2) Shavkat Mirziyoyevning 16.03.2022 da soliq qo'mitasida sohani takomillashtirish bo'yicha yig'ilishdagi nutqidan "Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir".O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidennti Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisdagi ma'ruzasi .Xalq so`zi.2005-yil 29-yanvar.
- 3) Soliqlar va soliqqa tortish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo'rayev; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Moliya in-ti, — Toshkent: Sharq, 2009. — 448 b.
- 4) [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)
- 5) "Davlat iqtisodiyoti va siyosati" – U.V.G'afurov, M.Sh.Xalilov, Sh.Boymurodov.
- 6) Rashidov A. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
- 7) Isadjanov A.A., Ismailova N.S. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi. O'quv qo'llanma. – Т.: <>, 2019.

8) Q.A.Isayev. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik – T.: << INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT – MATBAA UYI>> - 2021, 376 bet.